

HECI GLOBAL DASTURINING VETERINARIYA SOHASIDAGI
AHAMIYATI

*Narziyeva Nargiza Norkuziyevna,
SamDVMChBU, Ijtimoiy-gumanitar fanlar, jismoniy
madaniyat va sport kafedrası mudiri, dotsent, PhD.*

Email: nargizanarziyeva09@gmail.com

UDK: 1:371:619

Annotatsiya. HECI (Humanity, Ethics, Creativity, Imagination) global chaqirig'i jahonda barqarorlik va innovatsiyalarni rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Ushbu tamoyillar asosida qator mamlakatlarda muvaffaqiyatli loyihalar amalga oshirilgan bo'lib, ular barcha sohalarni zamonaviylashtirish va samaradorligini oshirishga yordam bermoqda.

Kalit so'zlar: HECI (Humanity, Ethics, Creativity, Imagination), insonparvarlik, axloqiy tamoyillar, tasavvur va kelajakni rejalashtirish, kreativlik va innovatsiyalar.

Абстрактный. Глобальная задача HECI (Человечность, Этика, Креативность, Воображение) служит развитию стабильности и инноваций в мире. На основе этих принципов в ряде стран реализованы успешные проекты, которые помогают модернизировать и повысить эффективность всех отраслей.

Ключевые слова: HECI (Человечность, Этика, Творчество, Воображение), гуманизм, этические принципы, воображение и планирование будущего, творчество и инновации.

Abstract. The HECI (Humanity, Ethics, Creativity, Imagination) global mission serves to promote stability and innovation in the world. Based on these principles, successful projects have been implemented in a number of countries that help modernize and improve the efficiency of all industries.

Keywords: HECI (Humanity, Ethics, Creativity, Imagination), humanism, ethical principles, imagination and planning for the future, creativity and innovation.

Kirish. HECI (Insonparvarlik, Axloq, Kreativlik, Tasavvur) global chaqirig'i bugungi dunyoda innovatsion yondashuvlar va axloqiy tamoyillarni uyg'unlashtirish orqali turli sohalarda barqaror rivojlanishni ta'minlashga qaratilgan. Bu dastur ayniqsa qishloq xo'jaligi sohasida muhim o'rin tutadi, chunki ushbu tarmoq global oziq-ovqat

**CURRENT PROBLEMS OF SOCIAL AND HUMANITARIAN SCIENCES AND PROSPECTS FOR
THE DEVELOPMENT OF THE FIELD OF PHYSICAL EDUCATION AND SPORTS**

xavfsizligini ta'minlash, ekologik barqarorlik va iqtisodiy rivojlanishda katta ahamiyatga ega.

Nazariy qism. *Insonparvarlik.* HECI global dasturining asosiy tamoyillaridan biri insonparvarlik bo'lib, bu qishloq xo'jaligi sektorida dehqon va fermerlarning hayot sifatini yaxshilashni nazarda tutadi. Zamonaviy texnologiyalar va innovatsiyalar yordamida fermerlarga qulay sharoit yaratish, ularning mehnatini yengillashtirish va hosildorlikni oshirish ushbu tamoyilning amaliy ifodasidir.

Axloqiy tamoyillar va barqaror rivojlanish. Qishloq xo'jaligida axloqiy tamoyillar ekologik muvozanatni saqlash, resurslardan oqilona foydalanish va tabiiy muhitni asrashni o'z ichiga oladi. HECI dasturi doirasida dehqonlar va qishloq xo'jaligi sohasi vakillariga ekologik toza usullarni tatbiq etish bo'yicha o'quv dasturlari ishlab chiqilishi mumkin. Bu esa kimyoviy o'g'itlar va pestitsidlardan ortiqcha foydalanishni kamaytirishga, tuproq unumdorligini oshirishga hamda barqaror qishloq xo'jaligini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kreativlik va innovatsiyalar Insonning IQ darajalarini rivojlanishiga juda ko'plab davlatlarda ta'limiy dasturlar yo'naltirilganyu Bu borada PISA- (o'quvchilarni ta'limiy yutuqlarini baholash xalqaro dasturi) dasturining ahamiyati alohida. Dastur doirasidagi tadqiqotlar natijasiga ko'ra kreativlikni muhit ta'sirida shakllanadigan noyob iste'dod deb qarab, kreativ fikrlash bilim sohasida original va samarali yechimlar, yutuqlar va tasavvurlarni ta'sirchan ko'rinishlarga olib keladigan g'oyalarni ishlab chiqish, baholash va takomillashtirish deb qaraydi.

HECI global dasturi kreativ yondashuvlarni ilgari surib, qishloq xo'jaligida innovatsion texnologiyalarning joriy etilishini qo'llab-quvvatlaydi. Masalan, aqlli qishloq xo'jaligi (smart farming), sun'iy intellekt va dron texnologiyalari yordamida ekin maydonlarini kuzatish, avtomatlashtirilgan sug'orish tizimlari va genetik modifikatsiya qilingan o'simliklarni ishlab chiqish orqali hosildorlikni oshirish imkoniyati yaratiladi.

Tasavvur va kelajakni rejalashtirish. Kelajakdagi qishloq xo'jaligi strategiyalarini ishlab chiqishda tasavvur katta rol o'ynaydi. HECI dasturi orqali global iqlim o'zgarishiga moslashish, zamonaviy agrobiznes modellari va ekotizimni qo'llab-quvvatlovchi tizimlarni yaratish bo'yicha ilg'or tadqiqotlar olib borilishi mumkin. Bu esa qishloq xo'jaligining barqaror rivojlanishiga va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga yordam beradi.

**CURRENT PROBLEMS OF SOCIAL AND HUMANITARIAN SCIENCES AND PROSPECTS FOR
THE DEVELOPMENT OF THE FIELD OF PHYSICAL EDUCATION AND SPORTS**

“HECI” maqsadlarini amalga oshirish, avvalo, uning komponentlarini hayotga tadbiq etish bilan bog‘liq. Keng miqyosda qo‘llanilishi zarur bo‘lgan vazifalar ijtimoiy, ma‘naviy ahamiyat kasb etadi. Bu vazifalarni ijtimoiy-gumanitar fanlar doirasida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. Inson madaniyati, tarixi, tili, falsafasi degani. Bu, gumanitar fanlar asosida amalga oshiriladi va inson jamiyatini, madaniy hodisalarni va odamlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni tushunishga yordam beradi. Bu borada esa birlamchi vazifalar belgilash lozim. Bular, ta‘lim va tarbiyada; tadqiqotchilik faoliyatida; jamiyat soha(iqtisod, tibbiyot, qishloq xo‘jaligi va x.)larida alohida yondoshuv zarur. Niderlandiya dunyodagi eng ilg‘or qishloq xo‘jaligi tizimlaridan biriga ega bo‘lib, u HECI tamoyillari asosida ishlab chiqilgan texnologiyalarni keng joriy qilgan. Sun‘iy intellekt va IoT (Internet of Things) vositalari yordamida fermerlar tuproq namligi, o‘simliklarning sog‘lig‘i va ob-havo sharoitini kuzatib boradilar. Natijada, minimal suv va o‘g‘it sarflab, maksimal hosildorlikka erishiladi. Singapur davlatida esa qishloq xo‘jaligi uchun yetarli yer maydoniga ega emas, lekin u HECI tamoyillaridan foydalangan holda vertikal fermerlik texnologiyasini rivojlantirdi. Ushbu usul orqali ko‘p qavatli issiqxonalarda hosil yetishtirish yo‘lga qo‘yilgan. Maxsus LED chiroqlar va gidroponika tizimi yordamida o‘simliklar an‘anaviy dehqonchilikka nisbatan 10 baravar tezroq o‘sadi.

Barqaror chorvachilik bo‘yicha Daniyada chorvachilik sohasida insonparvarlik va ekologik barqarorlikni targ‘ib qiluvchi mamlakatlardan biridir. Mamlakatda hayvonlar uchun qulay sharoitlar yaratish va metan chiqindilarini kamaytirish bo‘yicha innovatsion usullar joriy etilgan. Masalan, maxsus ozuqa qo‘shimchalari yordamida sigirlarning gaz chiqindilari 30% gacha kamaytirildi. Bu nafaqat ekologik muammolarni hal qiladi, balki chorvachilikning samaradorligini ham oshiradi. Aqlli sug‘orish tizimlari bo‘yicha esa Isroil davlati suvsiz hududda joylashgan bo‘lishiga qaramay, ilg‘or tomchilatib sug‘orish texnologiyalari yordamida qishloq xo‘jaligini rivojlantirishga muvaffaq bo‘ldi. HECI tamoyillariga asoslangan holda ishlab chiqilgan aqlli sug‘orish tizimlari suvni aniq nazorat qilib, faqat o‘simlikka kerak bo‘lgan miqdorda yetkazib beradi. Bu esa suv sarfini 50% gacha kamaytirishga yordam berdi. Raqamli fermerlik sohasida Hindistonda "E-Choupal" deb nomlanuvchi onlayn platforma ishlab chiqilgan bo‘lib, u fermerlarni bozor ma‘lumotlari, ob-havo prognozi va eng yaxshi dehqonchilik amaliyotlari bilan ta‘minlaydi. Ushbu platforma yordamida 4 milliondan ortiq fermerlar o‘z mahsulotlarini bozorga chiqarmoqda va oraliq vositachilarsiz bevosita xaridorlar bilan savdo qilish imkoniyatiga ega bo‘ldi.

**CURRENT PROBLEMS OF SOCIAL AND HUMANITARIAN SCIENCES AND PROSPECTS FOR
THE DEVELOPMENT OF THE FIELD OF PHYSICAL EDUCATION AND SPORTS**

Amaliy tavsiyalar. Kreativ fikrlash har bir ijtimoiy sohada yaqqol aks etishi mumkin. Kreativlik – bu yangi, original g‘oyalarni yaratish, fikrlashning nostandart shakli, berilgan muammolarga omadli yechimlar topishdir. Kreativ tafakkur esa revolyutsion tafakkur bo‘lib, u konstruktiv xarakterni ifodalaydi. Yangi tushunchalar, yangi yondoshuvlar asosan keng dunyoqarash egalarida ko‘proq kuzatiladi. Psixolog Devid Xokins tomonidan ijodiy tafakkur qobiliyatini tadqiq etib, muayyan daraja, bosqichlarni belgilagan. Bu psixologiya va sotsiologiyada keng qo‘llaniladi. Xokins shkalasi bo‘yicha ongning 17 darajasi aniqlangan. Har bir darajada histuyg‘u muhim va u rivojlanishga, ijodkorlikka rag‘bat beradi deb talqin qilingan.

Kreativ fikrlashni rivojlantirishda va ro‘yobga chiqara olish ko‘nikmalari odatda ta‘lim-tarbiya muhitida shakllanadi. Kreativ fikrlash bugungi kunda yoshlar egallashi kerak bo‘lgan zarur ko‘nikmadir. Mazkur ko‘nikma, yoshlarga bugungi shiddat bilan o‘zgarayotgan, zamonaviy axborot kommunikatsiyalaridan faol foydalana oladigan, oddiy savodxonlikdan ko‘ra ko‘proq natija ya‘ni, tashabbuskorlik talab qilinayotgan, bir so‘z bilan aytganda XXI asr ko‘nikmalariga ega malakali kadrlarga talab kuchayayotgan bir paytda ushbu jarayonga moslashishiga va raqobatbardosh kadr bo‘lib tayyorlashda o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Yoshlarni kreativ fikrlashini shakllantirish va rivojlantirishda quyidagi jihatlariga ahamiyat qaratish lozim.

-Birinchidan, shaxs tarbiyasida bolalikdanoq uning fikri muhim ahamiyat kasb etishini va jamoada o‘z o‘rniga ega ekanligini his qilishi imkon yaratish; -Ikkinchidan, bugungi kunda jamiyatda shakllangan dogmatik qarashlardan voz kechish;

-Uchinchidan, boshqaruv jaryonida avtokratik usullardan ko‘ra demokratik usullarni ko‘proq qo‘llash;

-To‘rtinchidan, kreativ fikrlaydigan shaxslarning g‘oyalarini va qarashlarini hurmat qilish, hamda ularni qo‘llab quvvatlashdir.

Ushbu jihatlarni ro‘yobga chiqarish uchun nafaqat shaxs kreativligi balki, jamoa kreativligi ham muhim rol o‘ynaydi. Jamoa deganda, ta‘limtarbiya muassasi, ilmiy tadqiqot muassasa, umuman tadbirkorlarni, boshqaruv organlarini ham tushunish mumkin.

Kreativlikning muhim tomonlari: aqliy bilish; hissiy bilish; tanqidiy fikrlash; ratsionallik; intellekt; intuitsiya; pragmatik bo‘lish.

Ba‘zan noyob ijod sohiblarining biqiq muhitda qolib ketayotgani, mutaxassis sifatida mensimaslik, faoliyatiga sun‘iy to‘siqlar yaralishi, g‘oyalarining talon-taroj

**CURRENT PROBLEMS OF SOCIAL AND HUMANITARIAN SCIENCES AND PROSPECTS FOR
THE DEVELOPMENT OF THE FIELD OF PHYSICAL EDUCATION AND SPORTS**

qilinishi, qo'llab-quvvatlanmaslik norozilikka sabab bo'lish bilan birga rivojlanishni "dogma" bo'lishiga, aql egalarini jamiyatdan ajralib qolishiga, yoki xorijga "eksport" bo'lishiga sabab bo'ladi.

Jamoaning kreativligi, tashabbuskorligi nimaga va kimga bog'liq, degan tabiiy savol tug'iladi. Nazarimizda uch omilga bog'liq: rahbarga, muhitga, rag'batga bog'liq.

Tasavvur insonning umumiy aqliy jarayonining bir qismi bo'lib, psixik jihatdan quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- voqelikni tasvirlarda aks ettirish,
- undan foydalanish imkoniyatini yaratish,
- muammolarni hal qilish;
- hissiy holatlarni tartibga solish;
- kognitiv jarayonlarni va insonning holatini, xususan, idrok, diqqat, xotira, nutq, his-tuyg'ularni tartibga solish;
- ichki harakatlar rejasini shakllantirish, ularni ongda amalga oshirish,
- tasvirlarni manipulyatsiya qilish qobiliyati;
- tadbirlarni rejalashtirish va dasturlash, dasturlarni tuzish, ularning to'g'riligini baholash, amalga oshirish jarayoni bajariladi.

HECI Global dasturi tamoyillari asosida amalga oshirilayotgan ushbu loyihalar qishloq xo'jaligining barqarorligi, samaradorligi va insonparvarligini oshirishga katta hissa qo'shmoqda. Bu tajribalar O'zbekiston va boshqa davlatlar uchun ham muhim dars bo'lib xizmat qilishi mumkin. Agrar sektorni texnologik jihatdan rivojlantirish, ekologik barqarorlikni ta'minlash va fermerlarning hayot sifatini yaxshilash uchun HECI tamoyillarini qo'llash muhim ahamiyatga ega.

Xulosa HECI global dasturi qishloq xo'jaligi sohasida innovatsion va insonparvarlik yondashuvlarini rivojlantirish orqali jamiyat farovonligini oshirishga katta hissa qo'shadi. Axloqiy tamoyillarga asoslangan barqaror qishloq xo'jaligi, kreativ texnologiyalar va strategik tasavvur yordamida ushbu sohaning kelajakdagi muvaffaqiyati ta'minlanishi mumkin. Shu sababli, HECI dasturining qishloq xo'jaligida keng qo'llanilishi nafaqat dehqonlar va fermerlar, balki butun insoniyat uchun ulkan ahamiyatga ega bo'ladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Мирзиёев Ш. Инсонпарварлик, эзгулик ва бунёдкорлик-миллий ғоямизнинг пойдеворидир. –Т.: Тасвир нашриёти, 2021. 36 бет.

**CURRENT PROBLEMS OF SOCIAL AND HUMANITARIAN SCIENCES AND PROSPECTS FOR
THE DEVELOPMENT OF THE FIELD OF PHYSICAL EDUCATION AND SPORTS**

2. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem solving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014

3. Мухаммаджонова, Абдулла Ш., Шадиметова Г. Ахлоқ фалсафаси. – Т.: 2023.

4. Н.Шермухаммедова Инсон фалсафаси. –Т.: 2016.

5. Замонавий ишчанлик протоколи ва этикети. Ишчанлик муносабатларида этика ва маданият / Конрад Аденауэр жамғармаси ваколатхонаси ёрдамида/ -Т.: АРТ ФЛЕХ, 2018.

6. Л.Мухаммаджонова. Давлат хизматчиси этикаси ва имиджи. –Т.: Университет, 2017.

7. Хотамов И.С., Мадрахимова Г. “Креатив фикрлаш” Ўқув қўлланма. “Инновацион ривожланиш нашриёт матбаа уйи” нашриёти, 2021 йил, 216 бет.

Ахборот манбалари:

1. www.lex.uz – Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси.

2. www.tradingeconomics.com – экономические показатели

3. <https://book4you.org>

4. <https://zen.yandex.ru/media/id/5b9007e0b4dba900ac7c07cb/10-uprajneniidlia-razvitiia-kreativnosti-5b9e7ec24f203f00ad288a20>

5. <https://4brain.ru/tvorcheskoe-myshlenie/>